

KIYIM-KECHAKLAR – O'TMISHDAN SO'ZLOVCHI MODDIY MANBA

Qarshiyev Islom Maxmarahim o'g'li

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7883272>

Annotatsiya. An'anaviy xalq kiyimlari moddiy madaniyatning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, ularda xalqning milliy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Maqolada Surxon vohasi qo'ng'irotlari etnografiyasini tadqiq etishda an'anaviy kiyimlar ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kiyim-kechak, chakmon, Surxon vohasi, qo'ng'irot, ip, jun, pilla, teri.

ОДЕЖДА – МАТЕРИАЛЬНЫЙ ИСТОЧНИК, ГОВОРЯЩИЙ О ПРОШЛОМ.

Аннотация. Традиционная народная одежда является основным компонентом материальной культуры, в ней проявляются национальные особенности народа. В статье говорится о значении традиционной одежды в исследованиях этнографии колоколов Сурханского оазиса.

Ключевые слова: одежда, чакмон, Сурханский оазис, колокольчик, нить, шерсть, кокон, кожа.

CLOTHES ARE A MATERIAL SOURCE THAT SPEAKS OF THE PAST.

Abstract. Traditional folk clothes are the main component of material culture, and national characteristics of the people are manifested in them. The article talks about the importance of traditional clothes in researching the ethnography of the bells of the Surkhan oasis.

Key words: clothing, chakmon, Surkhan oasis, bell, thread, wool, cocoon, skin.

O'rta Osiyo xalqlarining kiyim-kechaklari ko'p asrlik tarixga ega. Har bir etnos va etnik guruhlarning o'ziga xos xususiyatli kiyim-kechaklari mavjud bo'lsa-da, mintaqada yashovchi elatlarda umumiy xarakteridagi sarpo mavjudligi, bu etnolarning moddiy madaniyati, tarixiy taqdiri uzoq tarixiy davr davomida o'zaro yaqin bo'lganligidan dalolat beradi. Arxeologik qazishmalardan topilgan qadimiy katta devoriy rasmlar, har xil buyumlarga tushirilgan tasvirlar, o'rta asrlardagi kitob miniatyuralari ajdodlarimizning o'tmishdagi kiyim-kechaklari to'g'risida boy ma'lumotlar beradi. O'rta asrlarga oid miniatyuralar o'zbek kiyimlarining tipi shaklanganligi va ular keyingi davrgacha saqlanganligini namoyish qiladi¹.

Kiyim-kechaklar masalasida bugungi kunda Surxon vohasining o`zida bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, S.Tursunov, I.Umarov, O.Do`lanov, S.Axmedov va M.Rahmonov²lar Surxon vohasidagi Denov, Sariosiyo, Uzun, Sherobod, Boysun tumanlarda joylashgan o'zbek urug`larining an'anaviy kiyimlaridagi etnik va lokal xususiyatlarni o`rganib, o'z ilmiy xulosalarini berib kelmoqda.

An'anaviy o'zbek kiyim-kechagi, asosan, ustki ko'ylak, ishton va chopondan, boshga do'ppi, oyoqqa kalish-mahsi va etik kiyishdan iborat bo'lgan. Erkak-ayol va katta-kichiklar kiyimlari bichimining deyarli bir xilligi ularning qadimiyligidan darak beradi. Bunday liboslar oddiy usulda, ba'zan qaychisiz va ulgusiz, yaxlit matodan yirtib tikilgan. Bir parcha gazlamani

¹ Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi...- B. 149.

² B.X. KARMISHEVA TADQIQOTLARIDA SURXON VOHASI YUZ URUG'LARINING ETNIK TAVSIFI
<https://cyberleninka.ru/article/n/b-x-karmisheva-tadqiqotlarida-surxon-vohasi-yuz-urug-larinining-etnik-tavsifi>

ikkiga buklab yelka tomoniga ko‘ndalangiga ikki yeng bilan bir parcha to‘rtburchak xishtak (qo‘ltig‘iga solingan) ni tikib kiyilavergan³.

Dunyodagi har bir xalqning an’naviy kiyimlaridagi matolar tabiiy iqlim sharoiti, xo‘jalik mashg‘uloti, ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Dehqonchilik bilan shug‘ullangan aholining kiyimlari asosan paxtadan to‘qilgan matolardan tikilgan bo‘lsa, chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi aholi esa asosan jundan tayyorlangan matolardan kiyimlar tikishgan. Uy sharoitida ip, jun, pilla, teri va boshqa narsalardan mato tayyorlash an’anasi O‘zbekistonda juda qadimdan mavjud bo‘lgan⁴.

Sovet davlatining ilk boshqaruvi yillarida mahalliy ishlab chiqarilgan matolar an’naviy ko‘rinishini saqlab kelgan. Surxon voha aholisining kiyimlari avloddan-avlodga o‘rib kelayotgan qadimiylaridan – olacha, bo‘z, xonatlas, qalami, banoras, shoyi, beqasam, adres, so‘si va boshqa matolardan tikilgan⁵.

Chakmonning ham bir necha turlari mavjud bo‘lgan. To‘qima chakmonlar o‘rmakda to‘qilib tayyorlangan. Uning yelkasiga gulli kashtalar tikilishi yoki tikilmasligi ham mumkin. Xuddi shuningdek, qoqma (janda) chakmon ham shu usulda, biroq arqoqlari qilichda qayta-qayta qoqilib to‘qiladi. Ularning bir-biridan farqi shuki, qoqma (janda) chakmon asosan polvon va chavandozlar uchun tayyorlangan.

Mirzoyi chakmon asosan ziyoli kishilar uchun tayyorlangan.

Guldo‘zi chakmonni asosan yosh yigitlar kiyishgan.

Sinoyi chakmon hukmdor, bek, olim va shunga o‘xhash martabali kishilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, yengi kalta bo‘lgan.

Qurama chakmon turli rangdagi bosma va to‘qima matolar kashtalarda qurab tayyorlangan.

Mullayi chakmon – yengi va etagi uzun, ko‘ksini guldar, popukli va tupakli bog‘ichi birlashtirib turgan. Uni asoan diniy soha vakillari kiyishgan⁶.

Qo‘ng‘irotlarda ham boy, o‘ziga to‘q erkaklar “qoqma chakmon”, cho‘ponlar, oddiy va o‘rta hol tabaqaga mansub erkaklar esa “ko‘k chakmon” kiygan. Bu chakmonlar o‘z matosining sifati bilan bir-biridan farq qilgan⁷. “Qoqma chakmon” qalin, pishiq qora jun matodan ustki va ostki qismi ikki qavat qilib bejirim to‘qilgan. Bu chakmonni to‘qish uchun uzoq va mashaqqatlari mehnat zarur bo‘lib, uni o‘ziga to‘q kishilar maxsus buyurtma asosida tayyorlatganlar. “Ko‘k chakmon” ancha yupqa va ixcham bo‘lib, yengil jun matodan to‘qilgan. Voha cho‘ponlarining qahraton qish oylarida ustiga kiyadigan “kebanak”⁸ ustki kiyimi ham qo‘y junidan tayyorlangan. Kebanakning

³ Jabborov I. O‘zbeklar: turmush tarzi va madaniyati....- B. 40.

⁴ Сухарева О.А. Художественные ткани // Народное декоративное искусство Советского Узбекистана. Текстиль. – Ташкент, 1954.- C. 94.

⁵ SURXON-SHEROBOD VOHASI QO‘NG‘IROTLARINING KIYIM-KECHAKLARI VA ETNIK XUSUSIYATLAR. <https://cyberleninka.ru/article/n/surxon-sherobod-vohasi-qo-nga-irotlarining-kiyim-kechaklari-va-etnik-xususiyatlar>

⁶ Xudoyqulov X. Chakmon. Surxon tongi. 2009-yil 16-mart. 11сон.

⁷ Qo‘y junidan tayyorlangan “qoqma chakmon”, “ko‘k chakmon”ni Zarafshon vodiysi o‘zbek qipchoqlari, Qashqadaryo vohasi arablari ham kiyishgan. Qarang: Шаниязов К., Исмаилов Х.И. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конца XIX – начало XX в. – Т.: Фан, 1981. – С. 45.

⁸ Chorvadorlarning yomg‘ir, qordan himoya qiluvchi qishki qo‘y junidan tayyorlangan “kebanak” ko‘rinishi-dagi ustki kiyimlari Qashqadaryo arablarida “choydamiya” deb atalgan. Исмаилов X. Традиционная одежда арабов Кашкдаринской области УзССР // Костюм народов Средней Азии. – М., 1979. – С. 230.

ichi kigizdan bo‘lgan. Shuningdek, qo‘ng‘irot, yuz, tog‘chi urug‘larining erkaklari, asosan, qo‘y junidan tayyorlangan “bosma chakmon” yoki “kigiz chakmon” kiyganlar.

Surxon vohasida yumshoq, mayin qo‘y junidan tayyorlanadigan bosma shol, bosma olacha keng tarqalgan. “Bosma olacha” ning tikilishi o‘ziga xos bo‘lib, uni tayyorlashda har bir tikilayotgan qatorga yumshoq jun igna bilan osiltirib tikib chiqiladi va qaychi bilan teng qilib qirqligan yumshoq, mayin qo‘y juni bir tekis ko‘rinish oladi. Shu sababli aholi ularni “bosma olacha” yoki “bosma shol” deb yuritishgan. Bular Qorategin va Darvoz tojiklari hamda Shimoliy Kavkaz xalqlari – osetin, qabardin, balqarlarda ham uchraydi⁹. Shunday qilib, vohada chorvachilik bilan shug‘ullangan aholi tuya, qo‘y va echki junidan tayyorlangan matolardan kiyimlar kiyishgan. Surxon vohasida chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi aholi o‘z navbatida dexqonchilik bilan ham shug‘ullanib, mahalliy qo‘l dastgohlarida paxtadan tayyorlangan iplardan xilma-xil matolar to‘qishgan.

Surxon-Sherobod vohasida yashovchi qo‘ng‘irotlar tomonidan, ya’ni erkaklar ustki kiyimlaridan biri - cholvor asosan jundan bo‘lib, ishton ustidan kiyilgan, ko‘proq chorvachilik bilan shug‘ullangan vohaning tog‘ va tog‘oldi qishloqlarida kiyishgan. Jun ishlataladigan kiyimlardan yana biri bu chepkan bo‘lib, u uzun va keng qilib tayyorlangan hamda to‘n ustidan kiyilgan, ustidan belbog‘ bog‘lanmagan. Shuningdek, o‘rganilyotgan hududda belbog‘ o‘rnida echki qilidan eshilgan chipchig‘ay chilvir, ola chijim iplar ham bog‘lab yurilgan.

Tarixiy-etnografik adabiyotlardan ma'lumki, o‘zbek milliy kiyimlarining taraqqiy etib, o‘zgarib borishi doimiy jarayon bo‘lsa-da, lekin kiyim-kechaklardagi jiddiy burilishlar XIX asr so‘nggi choragida va XX asrda yuz bergen. Ayniqsa, ulkan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar va fan-texnika taraqqiyoti davri hisoblangan XX asrda o‘zbek milliy kiyimlari rivojida “inqilobiy” o‘zgarishlar sodir bo‘lib, ularning konstruktiv-texnologik va kompozitsion qurilishida yangi usullar, bichimlar paydo bo‘lgan.

Surxon vohasida aholining an'anaviy kiyimlari evolyutsiyasi va transformatsiyasini tahlil etish orqali, ishda erkaklarning kiyim-boshlari ayollarnikiga qaraganda ko‘proq o‘zgargan bo‘lsa-da, ammo vohada erkaklarning kiyimlari boshqa hududlarga qaraganda milliyligini ancha yaxshi saqlagan. Xususan, XX asrning birinchi yarmiga qadar vohada erkaklar ustki kiyimini chopon, jelak, chakmon, kebanak, po‘stin tashkil etgan. Chopon, ya’ni to‘n ustidan kiyiladigan yengil ust kiyimlardan biri jelak¹⁰ deb nomlangan. yengil kiyimlardan bo‘lgan tik yoqali ko‘ylak, uzun va keng yenglari, bo‘yi hamda uzun old yoqasi bilan farq qilgan. Erkaklari kiyadigan ishton cholbar, poyjoma deb atalib, uzun va keng bo‘lib, lipa, og‘ (g‘ishtak) hamda poychadan iborat bo‘lgan. Erkaklarning ishtonlari asosan bo‘zdan tikilgan.

Erkaklar bosh kiyimlaridan yana biri do‘ppi bo‘lib, tikilish uslubi, bezatilishiga ko‘ra bir-biridan farq qilgan¹¹. Bosh kiyim do‘ppining tikilishi, bu sulla tagidan kiyadigan dumaloq, qirrali, ya’ni “Kuloh” hamda o‘zi yakka holda kiyiladigan to‘rt burchak shakldagi ko‘rinishlari ham

⁹ Қаранг: Таджики Карапегина и Дарваза. – Душанбе, 1966. Вып 1. – С. 229; Куножаева Л. З. Материальная культура прикладное искусство осетин. – М., 1973. – С. 19 – 20.

¹⁰ SURXON-SHEROBOD VOHASI QO‘NG‘IROTLARINING KIYIM-KECHAKLARI VA ETNIK XUSUSIYATLAR. <https://cyberleninka.ru/article/n/surxon-sherobod-vohasi-qo-nga-irotlarining-kiyim-kechaklari-va-etnik-xususiyatlar>

¹¹ Сухарева О.А. Древние черты в формах головных уборов народов Средней Азии // ТИЭ. – М., 1954. Т.XXI. – С. 350 - 351.

bo‘lgan. Shuningdek, vohada chorvador aholi qish fasli uchun tuya junidan to‘qilgan matodan ham do‘ppi tikkanlar. Qo‘ng‘irotlar do‘ppini «qalpoq» deb ham nomlashgan¹².

Surxon-Sherobod vohasida istiqomat qilgan ayollarning kiyimlari o‘zida an’anaviy mahalliy ko‘rinishlarni saqlab kelgan. Ayollarning ustki kiyimida o‘ziga xos naqshlar, bezaklar, hoshiyalar ko‘p qo‘llanilgan. Ustki kiyimlari jelak, chopon, kamzul, yengsiz nimcha bo‘lsa, bosh kiyimlariga do‘ppi, ro‘mol, kaluta, yoping‘ichlar, oyoq kiyimlariga esa kalish, mahsi va popushdan iborat bo‘lgan¹³.

Surxon vohasi ayollarining kiyimlari yil fasllari qishki, bahorgi, yozgi, kuzgi kiyimlarga; kiyilishiga qarab kundalik, bayram va marosim kiyimlarga; tananing qaysi qismiga kiyilishiga qarab ichki, ustki, bosh, oyoq kiyimlariga bo‘lingan. XX asr boshlarida qizlar va qariyalar ko‘ndalang yoqali, ya’ni yelka yoqali ko‘ylak kiyganlar. Ba’zi qishloqlarda bu ko‘ylakni “kiftaki” deb nomlashgan. Bu ko‘ylak yoqalari chap yoki o‘ng tomondan yarim qarich uzunlikda bo‘lib, bosh kirishi uchun mo‘ljallangan tepa qismi ip bilan bog‘lab qo‘yilgan¹⁴. Ko‘hitang tog‘i atrofidagi qishloqlarda ayollarining ko‘ylaklari birmuncha kengroq qilib, ayniqsa, Jarqo‘rg‘on, Qiziriq va Bandixonda joylashgan qishloqlarda qo‘ng‘irot ayollarining ko‘ylaklari ham keng bichimda tikilgan. Hozirgi davrda ham tog‘li qishloqlarda keksa ayollarining uzun ko‘ylaklari o‘z bichimlarini saqlab kelmoqda¹⁵.

O‘rganilayotgan hududda qizlarning bosh kiyimlaridan biri “qasava” bo‘lib, bir necha xil matodan chambarak uslubida tayyorlangan hamda o‘rtta qismi ochiq qoldirilgan¹⁶. Ayollarning qadimi an’anaviy bosh kiyimlaridan biri bo‘lgan ro‘mol¹⁷, to‘rburchak shaklida bo‘lib, turlituman usullarda o‘ralgan. Vohaning qo‘ng‘irot urug‘iga mansub aholisi ro‘molni qiyiq deb atashgan. Ro‘mollar tayyorlangan matosiga qarab turlicha nomlangan. O‘rganilayotgan davrda vohada qizlar “gunoh yoshiga” yetgan davrdan boshlab ro‘mol o‘ray boshlaganlar¹⁸.

Xulosa qilib aytganda, Surxon-Sherobod vohasi aholisi an’anaviy kiyimlari va taqinchoqlari o‘zbek xalqining maishiy, moddiy-ma’naviy madaniyatining ajralmas qismi sifatida, o‘zida milliy xususiyatlarni aks ettirgan. XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida o‘rganilayotgan hududda qo‘ng‘irotlarning kiyimlarida an’anaviylik saqlangan bo‘lib, erkak va ayollar kiyimi asosan an’anaviy qadimi bichimini saqlab qolishi bilan birga, ayrim yangi zamonaviy bichim va rusumdagи ko‘ylaklarning paydo bo‘la boshlaganligini ko‘rishimiz mumkin. Mahalliy aholi kundalik turmush tarziga zamonaviy texnologiyalarning jalg etila borishi hamda etnomadaniy aloqalar va savdo-sotiқ aloqalarining takomillashuvi natijasida o‘ziga xos tarzda o‘zgarishlar yuz bergen. Qolaversa, an’anaviy kiyimlarning konstruktiv-texnologik va kompozitsion qurilishida

¹² Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Gegirdak qishlog‘i. 2020 yil.

¹³ Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Boysun, Sherobod tumanlari. 2020-2022 yillar.

¹⁴ Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Cho‘yanchi qishlog‘i. 2020 yil.

¹⁵ Tursunov N.N. Janubiy Surxon vohasi etnografiyası... – B. 76.

¹⁶ Симонов В.И. Головной убор узбечек-кунгирадок-“салля” или “баш” // Материалы Второго совещания археологии и этнографов Средней Азии. –М.-Л., - С. 249-250; Шаниязов К.Ш. Узбеки-карлуки.-Ташкент, 1964. - С. 119.

¹⁷ Сухарева О.А. Древние черты в формах головных уборов народов Средней Азии // ТИЭ. – М., 1954. Т.XXI. - С. 350-351.

¹⁸ Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumani Ko‘rto‘qay, Qoraqursoq qishloqlari. 2020 yil.

yangi usullar, bichimlarning kirib kelishi ularning keyingi taraqqiyotiga asos bo‘lishi bilan birga milliy kiyimlar bilan o‘zaro uzviyashib, ularning ajralmas qismlaridan biriga aylangan¹⁹.

REFERENCES

1. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi...- B. 149.
2. Jabborov I. O‘zbeklar: turmush tarzi va madaniyati...- B. 40.
3. Сухарева О.А. Художественные ткани // Народное декоративное искусство Советского Узбекистана. Текстиль. – Ташкент, 1954.- С. 94.
4. SURXON-SHEROBOD VOHASI QO‘NG‘IROTLARINING KIYIM-KECHAKLARI VA ETNIK XUSUSIYATLAR. <https://cyberleninka.ru/article/n/surxon-sherobod-vohasi-qo-ng-irotlarining-kiyim- kechaklari-va-etnik-xususiyatlar>
5. Xudoyqulov X. Chakmon. Surxon tongi. 2009-yil 16-mart. 11-son.
6. Шаниязов К., Исмаилов Х.И. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конца XIX – начало XX в. – Т.: Фан, 1981. – С. 45.
7. Исмаилов Х. Традиционная одежда арабов Каракалпакской области УзССР // Костюм народов Средней Азии. – М., 1979. – С. 230.
8. Tursunov N.N. Janubiy Surxon vohasi etnografiyasi... – B. 76.
9. Симонов В.И. Головной убор узбечек-кунгирадок-“салля” или “баш” // Материалы Второго совещания археологии и этнографов Средней Азии. –М.-Л., - С. 249-250.
10. B.X. KARMISHEVA TADQIQOTLARIDA SURXON VOHASI YUZ URUG‘LARINING ETNIK TAVSIFI <https://cyberleninka.ru/article/n/b-x-karmisheva-tadqiqotlarida-surxon-vohasi-yuz-urug-larining-etnik-tavsi>
11. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumani Ko‘rto‘qay, Qoraqursoq qishloqlari. 2020 yil.
12. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Cho‘yanchi qishlog‘i. 2020 yil.

¹⁹ SURXON-SHEROBOD VOHASI QO‘NG‘IROTLARINING KIYIM-KECHAKLARI VA ETNIK XUSUSIYATLAR. <https://cyberleninka.ru/article/n/surxon-sherobod-vohasi-qo-ng-irotlarining-kiyim- kechaklari-va-etnik-xususiyatlar>